

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**REJAPOV SAYDULLA XIKMATULLAYEVICH**

**DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Rejapov Saydulla Xikmatullayevich**

Davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishning  
mintaqaviy xususiyatlari .....5

**Режапов Сайдулла Хикматуллаевич**

Региональные особенности совершенствования механизма  
государственных закупок ..... 29

**Rejapov Saydulla Khikmatullaevich**

Regional characteristics of improving the public procurement implementation  
mechanism ..... 57

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 62

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**REJAPOV SAYDULLA XIKMATULLAYEVICH**

**DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4162 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Azimov Rustam Sodiqovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Umarov Abduvaxob Tursunovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy oponentlar:**

**Ruzmetov Baxtiyar**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Akramov Azamat Ramziddinovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.01.11 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 14-fevral soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, (71) 246-02-24, faks e-mail: (71) 246-90-80, [rektor@nuu.uz](mailto:rektor@nuu.uz)).

Dissertatsiya ishi bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№12-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, (71) 246-02-24, faks e-mail: (71) 246-90-80, [rektor@nuu.uz](mailto:rektor@nuu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 30-yanvar kuni tarqatildi.

(2025-yil 30-yanvardagi 44-raqamli reestr bayonnomasi).



**X.P. Abulqosimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Q.Q. Mambetjanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**A.V. Vaxabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining tobora jadal sur'atlarda rivojlanib borishi mamlakatlarda davlat xaridi jarayonlari o'rnining sezilarli darajada ortishiga olib keldi. Jumladan, davlat xaridlari hajmi yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmiga nisbatan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlar "Niderlandiyada 20,9 foiz, Finlyandiyada 18,9 foiz, Yaponiya va Germaniyada 18,1 foizni" tashkil etgan bo'lsa, Qozog'istonda 10,1 foiz, Rossiya Federatsiyasida 6,7 foiz, Qirg'izistonda 6,2 foizni"<sup>1</sup> tashkil etadi. Ushbu holat mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda davlat xaridlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda davlat xaridlari jarayonlarini raqamlashtirish, uni tashkil etish tamoyillarini takomillashtirish, xaridlarning iqtisodiy samaradorligini baholash, davlat xaridini amalga oshirishning samarali shakllarini ishlab chiqish, davlat xaridi jarayonida tadbirkorlik subyektlari ishtirokini kengaytirishga qaratilgan masalalar global muammo sifatida o'rganilmoqda. Jumladan, xarid jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, shartnoma tuzish tartibini soddalashtirish, davlat buyurtmachilari va yetkazib beruvchilar o'rtasidagi tovar yetkazib berish va to'lovlarni amalga oshirish jarayonlarini yanada rivojlantirish, davlat xaridlari tizimida innovatsiyalardan foydalanish amaliyotini kengaytirish muammolari hozirgi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida davlat xaridlari qamrovini kengaytirish, sohada sog'lom raqobat muhitini rag'batlantirish, davlat xaridi jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish, davlat xaridi tizimini raqamlashtirish, sohada korrupsion vaziyatlarning oldini olish va turli qonunbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik, davlat xaridi jarayonlarining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Respublikada davlat xaridlari jarayonida tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini kengaytirish uchun "... davlat xaridlariga "mahalliy kontent" talablarini joriy qilish zarur. Bugungi kunda 70 ming mahalliy ishlab chiqaruvchilardan 4 mingtasi (6 foizi) kooperatsiya portalidan ro'yxatdan o'tgan, ... davlat xaridida endi mahalliy mahsulotlar ulushini oshirishni rag'batlantirilishi"<sup>2</sup> mamlakatda davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilishidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5780-sonli "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish

<sup>1</sup> [www.oecd.org/en/topics/public-procurement.html](http://www.oecd.org/en/topics/public-procurement.html); «Государственные (муниципальные) закупки государств - членов Евразийского экономического союза» (анализ показателей отчетности) обзор 2023. – Москва, – 2024. – 12 с. // <https://www.bing.com/ck/a?!&p>.

<sup>2</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/7481> // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan 2024-yil 20-avgustdagi ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan nutqi".

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 5-dekabrdagi PQ-4544-sonli "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 2-iyuldagi PQ-5171-sonli "Davlat xaridi shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 3-dekabrdagi PQ-417-sonli "Davlat xaridlarida ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 276-sonli "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Iqtisodiy adabiyotda davlat xaridlarining nazariy asoslari xorijlik iqtisodchi-olimlar V. Samuelson, F. Skott, D. Levin, J. Smit, Ye. Krasnokutskaya, K. Seym, Ye. K'erstad, S. Vagstad, T. Li, X. Chjeng, J. Roberts, A. Sveting, P. Bajari, R. Millan, S. Tadelis, D. Porta, A. Vannukki, D. Soreidelarning<sup>3</sup> ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlarda davlat xaridining amaliy jihatlarini A. Xramkin, N. Maksimov, M. Ostrovnaya, Ye. Podkolzina, V. Barxatov, I. Zagorskiy, S. Istomin, Ye. Kovaleva, I. Smotriskaya, K. Famieva, A. Xvostov, O. Ponomareva<sup>4</sup> kabi olimlarning ilmiy asarlarida tahlil qilingan.

---

<sup>3</sup> Samuelson W.F. Competitive bidding with entry costs // Economics Letters. – 1985. – T. 17. – P. 53–57; Scott F., Levin D., Smith J.L. Equilibrium in auctions with entry // American economic review. – 1994. – T. 84. № 3. – P. 585–599; Krasnokutskaya E., Seim K. Bid preference programs and participation in highway procurement auctions // American economic review. – 2011. – T. 101. – № 6. – P. 2653–2686; Kjerstad E., Vagstad S. Procurement Auctions with Entry of Bidders // International journal of industrial organization. – 2000. – T. 18. – № 8. – P. 1243–1257; Li T., Zheng X. Entry and competition effects in first-price auctions: theory and evidence from procurement auctions // Review of economic studies. – 2009. – T. 76. – P. 1397–1429; Roberts J.W., Sweeting A. Entry and selection in auctions // Duke University Working Paper, – 2010. – 57 p.; Bajari P., McMillan R., Tadelis S. Auctions versus negotiations in procurement: an empirical analysis // Journal of law, economics, and organization. – 2009. – T. 25. – № 2. – P. 372–399; Porta D. Vannucci A. Corrupt exchanges: empirical themes in the politics and political economy of corruption. – 2001. – P. 14–21; Søreide T. Corruption in public procurement. Causes, consequences and cures // Chr. Michelsen Institute. – 2002. – № 1. – P. 40–43.

<sup>4</sup> Загорская Т.П., Пегин П.А. // Вестн. Тихоокеан. гос. ун-та. – 2014. – № 1 (32). – С. 247–252; Истомин С.В. Особенности институциональных механизмов в трансформируемой экономике // Истомин С.В. // Вестн. Челяб. гос. ун-та. – 2010. – № 6 (187). Экономика. Вып. 26. – С. 52–56; Истомин С.В. Природа институционального механизма // Истомин С.В. // Вестн. Челяб. гос. ун-та. – 2009. – № 1 (139). Экономика. Вып. 17. – С. 46–52; Ковалева Е.А. Институт государственных закупок как стимул инновационной активности хозяйственных субъектов // Ковалева Е.А. // Экономическая политика: на пути к новой парадигме: Пятнадцатый Друкер. чтения. – М., – 2013. – С. 217–222; Смотровская И. Государственные закупки и формирование инновационной экономики/ Смотровская И.С., Черных // Вопр. экономики. – 2010. – № 6. – С. 108–117; Смотровская И. Институт контрактных тношений на рынке государственных заказов // Смотровская И., Черных С. // Вопр.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan U. Burxanov, T. Atamuradov, J. Umarov, S. Turobov, U. O'roqov, Q. Otajonov, A. Akramov, K. Raximov, D. G'ofurov, M. Olloyorov, D. Xalmuradovlar<sup>5</sup> tomonidan davlat xaridlarining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uni tashkil etish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan.

Mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida davlat xaridlarini hududlarda amalga oshirish, davlat xaridlari jarayonida mintaqalarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish mexanizmini kompleks tadqiq etilmaganligi uni tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ladi.

### **Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FT-1852 "Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot ishining maqsadi** mintaqalarda davlat xaridlari tizimini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqot ishining vazifalari:**

davlat xaridlarini amalga oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, tizimlashtirish va qiyoslash;

mintaqalarda davlat xaridini amalga oshirish tamoyillari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq etish;

---

экономики. – 2008. – № 8. – С. 108–118; Смотриская И.И., Проблемы формирования федеральной контрактной системы: теория и практика // Смотриская И. этап: экономическая теория, анализ, практика. – 2010. – № 2. – С. 39–52; Фамиева К.И. Принципы построения федеральной контрактной системы в Российской Федерации // Фамиева К. И. // Вопр. управления. – 2013. – № 2 (23); Хвостов А.А. Оценка системы государственных закупок на соответствие принципам осуществления эффективных закупок // Хвостов А.А. // Аудит и финанс. анализ. 2010. №1. – С. 184–193; Пономарева О.В. Государственные закупки как инструмент торговой политики в развивающихся странах. // Российский внешнеэкономический вестник, – 2014, – № 9. – Б. 101; Храпкин А. Международный опыт построения системы госзакупок. <http://www.epgz.ru/goszakaz/public/1397.9.10.2008>, Максимов Н. Факторы сени и качества в международной практике тендерных торгов. <http://www.vneshmarket.ru/content/document.>; Ostrovnyaya M., Podkolzina E. Antitrust enforcement in public procurement: the case of Russia // Journal of competition law and economics. – 2015; Бархатов В.И. Эффективность контрактных отношений в российском корпоративном секторе // Бархатов В.И., Кондратов Н.И. // Вестн. Моск. ун-та. – 2010. Сер. Экономика. – № 4. – С. 112–118.

<sup>5</sup> Burxanov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, – 2012. – 152 b; Atamurodov T. O'zbekistonda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, – 2021. – 62 b.; Umarov J.T. Davlat xaridlari tizimini takomillashtirishning metodologik jihatlar. I.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, – 2021. – 48 b; Turabov S.A. Byudjet tashkilotlarining davlat xaridlarini amalga oshirishdagi moliyaviy munosabatlarini takomillashtirish yo'llari. I.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, – 2021. – 28 b; O'roqov U. Davlat xaridlari tizimi: kecha va bugun // Bozor, pul va kredit jurnali. – T., – 2018. – № 8. <https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-economy-uz/4051-davlat-xaridlari-tizimi-kecha-va-bugun>; Otajonov Q.O. Outsorsing xizmatlarini rivojlantirish asosida davlat xaridlarini sifatli ta'minlash yo'llari. // I.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Nukus, – 2023. – 64 b; Akramov A.R. O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, – 2023. – 58 b; Raximjonov K.I. O'zbekiston Respublikasi IIV tizimida davlat xaridlarini takomillashtirish istiqbollari. // I.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, – 2024. – 62 b; Gofurov D.B. O'zbekistonda davlat va korporativ xaridlar jarayonini takomillashtirish. // I.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent. – 2020. – 62 b; Оллоёров М., Холмурадов Д. Система Государственных закупок в Узбекистане. <http://publicfinance.uz/materials>.

jahonda shakllangan davlat xaridlarini amalga oshirish modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy taqqoslash;

O'zbekiston mintaqalarida davlat xaridlarini amalga oshirishning huquqiy-institutsional asoslarini o'rganish;

davlat xaridlarini amalga oshirishning mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish;

Respublika hududlarida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlarining rivojlanish tendensiyalarini baholash;

davlat xaridlarini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

o'rta muddatli istiqbolda davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlarini rivojlanishi bo'yicha prognoz ssenariyalarini ilmiy asoslash.

**Tadqiqot ishining ob'ekti** sifatida Andijon viloyati byudjet buyurtmachilarning davlat xaridlari olingan.

**Tadqiqot ishining predmetini** mintaqalarda davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida mantiqiy va qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, statistik guruhlash, tizimli yondashuv, ekonometrik modellashtirish va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mintaqalarda davlat xaridlarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshirishga hududlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari xodimlari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironligi bo'lgan shaxslar va yoshlar tashkil qilgan hamda ularga ish haqi fondining kamida 50 foizi ajratilgan bo'lsa, o'sha tadbirkorlik subyektlariga davlat xaridlari jarayonida alohida ustuvorlik berish orqali erishish taklifi asoslangan;

mintaqalarda davlat xaridlarini amalga oshirish usulini byudjet buyurtmachilari tomonidan tovar va xizmatlarni xarid qilishda tender savdolarida faqat bitta tadbirkorlik subyekti ishtirok etib, keyinchalik qo'shimcha talablar qo'yilmagan holda takroriy tender savdolari tashkil etilib, unda ilgari qatnashgan tadbirkorlik subyekti qayta ishtirok etsa, tender savdolarini yakunlangan deb hisoblash orqali takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

davlat xaridlari jarayonida mintaqalarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish mexanizmini ular tomonidan ishlab chiqarilib, davlat xaridlari elektron savdo platformasi orqali sotilgan tovar va xizmatlari miqdori summasining 10 foizini soliqqa tortiladigan tushumdan chegirish tartibini joriy qilish orqali takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

davlat xaridlari jarayonida sog'lom raqobat muhitini yaratishga taklif qilinayotgan tovar va xizmatlar narxlarini ularning turlari kesimida jamoatchilik nazorati ostida shakllantirish tizimini joriy etish orqali erishish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomalar sonining sohalar kesimidagi ko'rsatkichlariga asoslangan holda Andijon viloyati tumanlarining reyting ko'rsatkichlari hisoblangan;



davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari baholangan;

davlat xaridini amalga oshirish jarayonlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqilgan;

davlat xaridlarini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari aniqlangan.

o'rta muddatli istiqbolda davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlari rivojlanishi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Andijon viloyati G'aznachilik xizmati boshqarmasi, viloyat Statistika boshqarmasi va O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining rasmiy manbalaridan olinganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarining ishonchliligi respublikada davlat xaridlarini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan maqsadli davlat dasturlariga muvofiqligi hamda tegishli xulosalarni mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyadan olingan ilmiy xulosalardan, mamlakatda davlat xaridlarini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, xaridlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, davlat xaridlari tizimini rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini belgilashga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining respublikada davlat xaridlarini samarali tashkil etishda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga xizmat qilishi, davlat xaridlariga oid qonunchilikni ishlab chiqish, tegishli qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda tizimli takomillashtirishga qaratilgan maqsadli davlat dasturlari va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ishning tegishli natijalaridan oliy o'quv yurtlarida "Davlat moliyasi", "Moliya", "G'aznachilik tizimi", "Davlat xaridlari", "Davlat va mahalliy byudjetlar" fanlarining o'quv materiallarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishning mintaqaviy xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mintaqalarda davlat xaridlarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshirishga hududlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari xodimlari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironligi bo'lgan shaxslar va yoshlar tashkil qilgan hamda ularga ish haqi fondining kamida 50 foizi ajratilgan bo'lsa, o'sha tadbirkorlik subyektlariga davlat xaridlari jarayonida alohida ustuvorlik berish orqali erishish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PQ-249-sonli "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik biznes subyektlari ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

1-ilovasining 1-, 2-, 3-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 17-oktyabrdagi 08/44-2-21634-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida respublikada davlat xaridlari orqali nogironligi bo‘lgan shaxslar, ayollar, yoshlar va tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash darajasi ortishiga erishiladi;

mintaqalarda davlat xaridlarini amalga oshirish usulini byudjet buyurtmachilari tomonidan tovar va xizmatlarni xarid qilishda tender savdolarida faqat bitta tadbirkorlik subyekti ishtirok etib, keyinchalik qo‘shimcha talablar qo‘yilmagan holda takroriy tender savdolari tashkil etilib, unda ilgari qatnashgan tadbirkorlik subyekti qayta ishtirok etsa, tender savdolarini yakunlangan deb hisoblash orqali takomillashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PQ-249-sonli “Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik biznes subyektlari ishtirokini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 5-bandining 5-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 17-oktyabrdagi 08/44-2-21634-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi byudjet tashkilotlari mablag‘larini o‘z vaqtida o‘zlashtirish va xaridlarni o‘z vaqtida amalga oshirishga xizmat qiladi;

davlat xaridlari jarayonida mintaqalarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirish mexanizmini ular tomonidan ishlab chiqarilib, davlat xaridlari elektron savdo platformasi orqali sotilgan tovar va xizmatlari miqdori summasining 10 foizini soliqqa tortiladigan tushumdan chegirish tartibini joriy qilish orqali takomillashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan “Iqtisodiyot sohasi va tarmoqlarini rivojlantirishga oid normativ huquqiy hujjatlar va ularni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlari”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 17-oktyabrdagi 08/44-2-21634-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida mintaqalardagi tadbirkorlik subyektlarini davlat xaridlari orqali qo‘llab quvvatlash mexanizmining yaratilishi, ular daromadlarining ortishi hamda faoliyatini rivojlantirish uchun qo‘shimcha resurslar manbasini yaratishga xizmat qiladi;

davlat xaridlari jarayonida sog‘lom raqobat muhitini yaratishga taklif qilinayotgan tovar va xizmatlar narxlarini ularning turlari kesimida jamoatchilik nazorati ostida shakllantirish tizimini joriy etish orqali erishish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PQ-249-sonli “Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik biznes subyektlari ishtirokini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorini 8-bandini 1-xatboshini tayyorlashga foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 17-oktyabrdagi 08/44-2-21634-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida davlat xaridlari jarayonida elektron shaklda o‘tkazish, shaffoflikni va raqobatni oshirish, narxlarning pasayishiga, byudjet mablag‘larini tejash uchun vakolatli organlar tomonidan monitoring qilish imkoniyatini yaratdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 4 ta ilmiy maqolalar, jumladan 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 137 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Davlat xaridlarini amalga oshirishning ilmiy nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida davlat xaridlarini amalga oshirishga bag'ishlangan ilmiy yondashuvlar, davlat xaridini amalga oshirish tamoyillari va unga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Shuningdek, davlat xaridini amalga oshirish modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.


Jahonda bozor iqtisodiy munosabatlar tizimi rivojlanib borgan sari mamlakatlarda davlatning o'z moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, jumladan, davlat xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlarini amaliyotga joriy etishning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbligi ortib borgan.

Davlat xaridi iqtisodiy kategoriyasiga nisbatan uzoq xorijlik iqtisodchi olimlar A. Smit, S. Errousmi, S. Shivo-Kampo hamda yaqin xorijlik iqtisodchilar A.V. Pikulik, T.F. Ryabova, G.I. Martinenko, A.A. Demin N.V. Nasterovichlarning yondashuvlari tadqiq etilgan. Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari U. O'roqov, G. Qosimova, U. Burxanov, S.A. Turobov, J.T. Umarovlarning iqtisodiy qarashlari o'rganilgan. Tahlillarga ko'ra, bugungi kunga qadar iqtisodiy adabiyotda davlat xaridi atamasiga nisbatan yagona bo'lgan umumiy yondashuv shakllanib ulgurmagan. Ushbu holat jahonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining jadal rivojlanishi, global va mamlakat ichki muhitidagi turli ijtimoiy-iqtisodiy keskin vaziyatlarning vujudga kelishi, mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va ularda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqot ob'ekti turlicha bo'lganligi bilan izohlanadi.

Tahlillardan kelib chiqib, mazkur tadqiqot ishida “davlat xaridi” iqtisodiy kategoriyasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. “Davlat xaridi” – bu davlatning

mahalliy, iqtisodiy, ijtimoiy va yashil barqarorlik maqsadlari bo'yicha mavjud ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan davlat byudjeti yoki nobyudjet mablag'lari hisobidan to'liq yoki qisman sotib olish jarayonida vujudga keladigan byudjet xarajatlarining maqsadligini ta'minlash imkonini beruvchi moliyaviy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishda, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash orqali ta'minlash maqsadga muvofiq (1-rasm).



**1-rasm. Davlat xaridlarini amalga oshirishning takomillashtirilgan mexanizmi<sup>6</sup>**

Davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'llab quvvatlashni xodimlari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironligi bo'lgan shaxslar va yoshlar tashkil qilgan hamda elektron savdo platformasi orqali sotilgan tovar va xizmatlari miqdori summasining 10 foizini soliqqa tortiladigan tushumdan chegirish tartibini joriy qilinishi, xaridlar mexanizmi orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'llab-quvvatlash va ularni davlat xaridlarida ishtirokini ko'paytirish imkonini oshiradi.

Iqtisodchi D.Odinayevning fikricha, "hududlar va hudud birliklari uchun aniqlangan iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlari asosida guruhlash iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, hududlar sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish orqali undan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin"<sup>7</sup> deb ta'kidlagan. Bundan ko'rinadiki, hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga xaridlarni amalga oshirish orqali, hududdagi ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratish samaradorligini oshirish mumkin. Bundan tashqari

<sup>6</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>7</sup> Odinayev D. Sh. O'zbekiston mintaqalari iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish yo'nalishlari. Iqt. fan. falsafa dok. (PhD) diss. avtoref., – Toshkent. – 2024. – 57 b.

hududlardagi “ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat xaridlari tizimida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish”<sup>8</sup>ga alohida e’tibor qaratish lozim.

Davlat xaridlari tizimining to‘g‘ri tashkil etilmasligi mamlakatda YaIMga nisbatan davlat xarajatlarining samarasiz ishlatilishi va ortiqcha xarajat qilinishiga sabab bo‘ladi. A. Vagner tomonidan mazkur jarayonlar chuqur tadqiq etilib, jadal iqtisodiy o‘rnatish ko‘rsatkichlari pirovard natijada davlat xarajatlarini ortishiga olib kelishi mumkinligi ilmiy asoslangan<sup>9</sup>.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekistonda davlat xaridlarini amalga oshirish xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida davlat xaridlarini amalga oshirishning institutsional jihatlarini, davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, Andijon viloyatida davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha hududlar va sohalar bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Mazkur tadqiqot ishida muallif tomonidan Andijon viloyatida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan hamda viloyatda davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha hududlarning reyting ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan. Mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga ustuvorlik qaratilishi bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar tizimini tobora rivojlanishiga olib kelmoqda (1-jadval).

## 1-jadval

### Andijon viloyatida amalga oshirilgan davlat xaridlarining rivojlanish tendensiyalari<sup>10</sup>

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
<b>Davlat xaridlari bo‘yicha tuzilgan shartnoma qiymati (mln. so‘mda)</b>	1 740 817	1 881 010	2 154 279	2 662 183	5 924 331
<b>Davlat xaridlari bo‘yicha tuzilgan shartnomalar soni (birlikda)</b>	34 921	66 757	64 013	61 022	122 155
<b>Davlat xaridlari bo‘yicha amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi (mln. so‘mda)</b>	1 639 625	1 794 092	2 022 758	2 521 504	5 515 524

1-jadval ma’lumotlari tahliliga ko‘ra, 2020–2022-yillar mobaynida Andijon viloyatida davlat xaridlari bo‘yicha tuzilgan shartnomalar soni 8,6 foizga yoki 5 735 taga kamayishiga qaramay, ushbu davrda tuzilgan shartnomalar qiymati va ular bo‘yicha amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi barqaror o‘rnatish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Shuningdek, 2023-yilga kelib esa viloyatda davlat xaridlarini amalga

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953 sonli “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4751561>.

<sup>9</sup> Wagner A. Grundlegung der politischen Okonomie. – Leipzig: C.F. Winter, – 1982. – P. 929.

<sup>10</sup> Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya hamda G‘aznachilik xizmati boshqarmalari ma’lumotlari asosida hisoblangan.

oshirish ko'rsatkichlari 2022-yilga nisbatan keskin ortganligini ko'rish mumkin. Jumladan, davlat xaridlari bo'yicha tuzilgan shartnomalar soni 2,0 barobarga, shartnomalarning umumiy qiymati bilan davlat xaridlari bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlari esa 2,7 barobarga ortgan, 2019–2023-yillarda Andijon viloyatida davlat xaridlarini amalga oshirishning tarkibiy ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, shartnomalarning 42,3 foizi elektron do'konlar orqali tuzilgan bo'lsa, jami shartnomalarning 33,3 foizi to'g'ridan-to'g'ri va 14,8 foizi so'rovnoma asosida tuzilgan shartnomalar hisoblanadi<sup>11</sup>.

Mazkur tadqiqot ishida nafaqat Andijon viloyati, shu bilan birgalikda respublikaning barcha viloyatlarida amalga oshirilgan davlat xaridlarining o'zgarish tendensiyalari ham tahlil qilingan (2-jadval).

**2-jadval**

**Hududlarda amalga oshirilgan davlat xaridlari<sup>12</sup>, mlrd, so'm**

№	Xudud	2021						2023						O'sish darajasi (2023/2021)		
		YAHM	Ulushi %	Soni	Xarid summa	shundan		YAHM	Ulushi %	Soni	Xarid summa	shundan		Soni	Summa	%
						Elektron do'kon	Ulushi %					Elektron do'kon	Ulushi %			
	<b>Jami:</b>	<b>820537</b>	<b>7%</b>	<b>1105005</b>	<b>56279</b>	<b>2317</b>	<b>4%</b>	<b>1192163</b>	<b>7%</b>	<b>1180086</b>	<b>78764</b>	<b>4618</b>	<b>6%</b>	<b>75081</b>	<b>22485</b>	<b>140%</b>
1	Qoraqalpog'iston Res.	29738	8%	80456	2510	176	7%	39430	8%	86846	3271	275	8%	6390	761	130%
2	Andijon v.	48894	4%	64013	2154	125	6%	76307	8%	122155	5924	231	4%	58142	3770	275%
3	Buxoro v.	43070	8%	73576	3473	219	6%	60029	7%	67608	4345	320	7%	-5968	872	125%
4	Jizzax v.	25632	9%	55012	2423	116	5%	37132	8%	57639	3092	302	10%	2627	669	128%
5	Qashqadaryo v.	49398	9%	70426	4383	158	4%	68455	9%	70734	6302	325	5%	308	1919	144%
6	Navoiy v.	61118	4%	51746	2192	110	5%	85964	3%	53417	2714	210	8%	1671	522	124%
7	Namangan v.	40269	9%	64007	3738	155	4%	57443	7%	65611	4040	327	8%	1604	302	108%
8	Samarqand v.	59260	7%	82432	4289	196	5%	84094	5%	85237	4519	396	9%	2805	229	105%
9	Surxondaryo v.	33591	12%	76213	3869	120	3%	46840	10%	83115	4811	311	6%	6902	941	124%
10	Sirdaryo v.	16865	9%	44099	1436	100	7%	23940	8%	47645	1897	184	10%	3546	461	132%
11	Toshkent sh.	139397	11%	177818	15176	476	3%	210207	11%	188827	23721	1033	4%	11009	8545	156%
12	Toshkent v.	91317	5%	92621	4486	189	4%	118825	5%	94819	5686	370	7%	2198	1200	127%
13	Farg'ona v.	55832	7%	97195	3645	218	6%	77671	7%	81005	5186	347	7%	-16190	1541	142%
14	Xorazm v.	29737	8%	75391	2503	135	5%	43463	7%	75428	3256	262	8%	37	753	130%


2-jadval ma'lumotlari 2021-yilda mamlakatda jami YaHM hajmi 820537 mlrd. so'm bo'lib, davlat xaridlarining ulushi 7 foizni tashkil etganligini ko'rsatadi. 2023-yilda YaHM hajmi 1192163,0 mlrd. so'm bo'lib unda davlat xaridlarining ulushi 6 foizni tashkil qilgan. 2021-yilga nisbatan 2023-yilda davlat xaridlari 20083 mlrd. so'mga yoki 35 foizga ortgan. Buxoro, Farg'ona viloyatlarida davlat xaridlari

<sup>11</sup> Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya hamda G'aznachilik xizmati boshqarmalari ma'lumotlari asosida hisoblangan

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Tovar xomashyo birjasi ma'lumot asosida tuzilgan.

bo'yicha shartnomalar soni kamaygan. Toshkent shahar, Qashqadaryo, Andijon, Farg'ona, Qoraqolpag'iston va Xorazm viloyatlarida davlat xaridlari 30 foizdan yuqoriroq ortgan. Namangan va Samarqand viloyatlarida davlat xaridlari eng kam ortgan hududlar hisoblanadi. Davlat xaridlari tarkibida elektron do'konda amalga oshirilgan xaridlar 2021-yilga nisbatan 2023-yilda 2 foiz ortgan. Tahlillardan ko'rinib turibdiki, hududlarda davlat xaridlari hajmining ko'payishi YaHM va faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tushumining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, bu hududdagi tadbirkorlik subyektlarini foydasini ko'payishiga, mahalliy byudjet mablag'larining iqtisod qilinishi, mahalliy byudjet daromadlarining ortishiga sabab bo'ladi.

Davlat xaridlari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u YaHM hududiy mahsulot hajmiga, hududdagi faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati hamda hududda tovar ishlab chiqaruvchilar xaritasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi (2-rasm). Hududlarda joylashgan byudjet buyurtmachilari ham o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarni milliy do'konlardan xarid qilishi ushbu xo'jalik subyektlari daromadi, yakuniy natijada YaHM hajmini oshirishga xizmat qiladi (2-rasm).




**2-rasm. Davlat xaridlarini hududlarning rivojlanishiga ta'siri<sup>13</sup>**

Andijon viloyatida davlat xaridlarini amalga oshirishning so'nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari tahliliga ko'ra, 2019–2023-yillarda konkurs (8,1 foizdan 2,2 foizga kamaygan), tender (0,4 foizdan 1,0 foizga yetgan) va auksion (6,6 foizdan 1,3 foizga kamaygan) orqali tuzilgan davlat xaridlari shartnomalarining jami tuzilgan shartnomalar hajmidagi umumiy ulushi 3,4 barobarga yoki 15,1 foizdan 4,5 foizga qisqarganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, elektron do'kon orqali

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi.



tuzilgan shartnomalarning jami shartnomalar tarkibidagi ulushi 2019–2020-yillarda 39,1 foizdan 51,5 foizga yetgan bo‘lsa, 2020–2023-yillarda esa pasayish tendensiyasi kuzatilib, 30,2 foizgacha kamaygan. Ushbu ko‘rsatkich 2019-yilgi ko‘rsatkichga nisbatan 8,9 foizga kam ekanligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birgalikda, markazlashgan holda tashkil etiladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarni tuzish orqali amalga oshiriladigan davlat xaridlarining jami shartnomalar tarkibidagi ulushi 2019–2023-yillarda 19,6 punktga ko‘paygan holda 45,7 foizdan 65,3 foizga ko‘paygan (3-rasm).



**3-rasm. Andijon viloyatida amalga oshirilgan davlat xaridlarining shartnomalar soni bo‘yicha tarkibi, jamiga nisbatan foizda<sup>14</sup>**

Andijon viloyati hududlari kesimida davlat xaridlari bo‘yicha tuzilgan shartnomalar ulushini tahlili ko‘rsatdi (3-jadval).

3-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda Ulug‘nor tumanida (jami shartnomalar soniga nisbatan 0,8 foiz) davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shartnomalar soni viloyatning boshqa tumanlariga nisbatan eng kam ko‘rsatkichni qayd etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib esa, Bo‘ston tumanida (jami shartnomalar soniga nisbatan 2,1 foiz) davlat xaridlari bo‘yicha tuzilgan shartnomalar boshqa tumanlarga nisbatan eng quyi natijaning qayd etganligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, davlat xaridlari bo‘yicha tuzilgan shartnomalar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich 2019–2023-yillarda Asaka tumani hissasiga to‘g‘ri kelganligi (mos ravishda jami shartnomalar soniga nisbatan 5,8 foiz bilan 5,2 foiz) bilan xarakterlanadi.

Andijon viloyatida “2023-yilda YaHM tarkibida kichik biznes subyektlarining ulushi 66,0 foizni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 1,1 punktga ortgan. 2024-yil 1-yanvar holatiga kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 24381 tani tashkil etgan, 2023-yilga nisbatan 14657 taga yoki 38 foizga kamaygan. 2023-yilda 4185 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi, bu o‘tgan 2022-yilga nisbatan 22,5 foizga kamaygan. Viloyatda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 7,2 birlikni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 4,5 birlikka kamaygan. 2024-yil 1 yanvar holatiga viloyatda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Andijon shahrida 13,8 birlik, Bo‘ston tumanida 10,8 birlik,

<sup>14</sup> Muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.



Xo‘jaobod tumanida 10,0 birlik, Xonobod shahrida 9,6 birlikni tashkil etadi. 2023-yilda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, eng ko‘p yangi subyektlar savdo sohasi hissasiga to‘g‘ri kelib, 43 foizni, sanoat sohasida 20 foizni, qishloq xo‘jaligida hamda qurilish sohasida 7 foizdan tashkil etgan<sup>15</sup>.

**3-jadval**

**Andijon viloyati hududlari kesimida davlat xaridlari bo‘yicha tuzilgan shartnomalar soni, jamiga nisbatan foizda<sup>16</sup>**

Hududlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
<b>Andijon viloyati bo‘yicha jami</b>	<b>34921</b>	<b>66757</b>	<b>64013</b>	<b>61022</b>	<b>122618</b>
	<b>100 %</b>	<b>100 %</b>	<b>100 %</b>	<b>100 %</b>	<b>100 %</b>
Jumladan, foizda					
Qo‘rg‘ontepa tumani	2,8	4,6	4,8	4,8	4,3
Oltinko‘l tumani	1,9	3,5	3,6	3,5	3,6
Andijon tumani	1,4	5,2	3,6	3,5	3,5
Asaka tumani	5,8	5,6	6,2	5,4	5,2
Baliqchi tumani	3,6	4,5	4,6	5,1	5,0
Buloqboshi tumani	1,6	2,9	3,1	2,5	3,0
Bo‘ston tumani	1,0	2,7	2,6	2,6	2,1
Andijon shahri	1,7	6,1	4,8	4,6	4,9
Xonobod shahri	2,0	2,9	2,6	2,6	2,3
Jalaquduq tumani	1,3	3,6	3,7	3,9	3,0
Izboskan tumani	3,2	5,1	3,9	3,8	3,6
Marhamat tumani	2,5	4,1	4,0	4,0	3,6
Paxtaobod tumani	2,4	3,8	3,9	3,6	3,7
Ulug‘nor tumani	0,8	2,9	2,7	3,5	2,8
Xo‘jaobod tumani	2,9	5,1	4,5	3,9	3,7
Shahrixon tumani	3,2	4,2	4,3	3,9	3,9
Andijon viloyati boshqarmasi	61,8	33,1	37,1	38,9	41,9

Andijon viloyatida nogironligi bo‘lgan shaxslar “2023-yil 1-dekabr holatiga 80624 nafarni tashkil etib, har 10 ming aholiga o‘rtacha 237,5 nafarni tashkil etgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2024-yil 1-dekabr holatiga 86085 nafarni tashkil etib, har 10 ming aholiga o‘rtacha 253,6 nafarni tashkil etgan. Nogironligi bo‘lgan shaxslar soni tahlil qilinayotgan davrda 6,8 foizga ortganligini ko‘rishimiz mumkin. 2024-yil 1-dekabrda jami 757 nafar nogironligi bo‘lgan shaxslar ish bilan ta‘minlangan”<sup>17</sup>.

Tahlillar Andijon viloyatida yildan yilga YaHM tarkibida kichik biznes subyektlarining ulushi ortib borayotganini ko‘rsatadi. Davlat xaridlarini amalga oshirishda Milliy do‘kondan tovar va xizmatlar xarid qilinganda asosan ularni yetkazib beruvchilari hududlardagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Shunga ko‘ra, Andijon viloyatidagi byudjet buyurtmachilari tomonidan Milliy do‘kondan amalga oshirilgan davlat xaridlarini 2022–2023-yillardagi holatini tahlil

<sup>15</sup> Andijon viloyatining 2023-yil yanvar-dekabr yakunlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik ko‘rsatkichlari tahlili – Review.uz

<sup>16</sup> Muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

<sup>17</sup> Ijtimoiy himoya Milliy agentligining Andijon viloyat boshqarmasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

qilib chiqish maqsadga muvofiq. “2022-yilda viloyat bo‘yicha jami 59162,0 mln. so‘mlik 7035 ta shartnoma tuzilgan bo‘lib, jami iqtisod qilingan mablag‘ 11090 mln. so‘mni tashkil etgan. 2023-yilda viloyat bo‘yicha jami 158823,0 mln. so‘mlik 13118 ta shartnoma tuzilgan bo‘lib, jami iqtisod qilingan mablag‘ 25069 mln. so‘mni tashkil etgan. Shundan, 2022-yilda 297 ta 3848 mln. so‘mlik, 2023-yilda 519 ta 9616 mln. so‘mlik shartnomalar bekor qilingan”<sup>18</sup>. Bevosita bekor qilingan shartnomalarning 50 foizda ortig‘i buyurtmachilar tomonidan bekor qilingan. Shartnomalarning bekor bo‘lishiga bevosita tovar (ish, xizmatlar) narxlarining pastligi yoki boshqa omillar ta‘sir ko‘rsatgan (4-jadval).

#### 4-jadval

#### Andijon viloyatidagi byudjet buyurtmachilari tomonidan Milliy do‘kondan amalga oshirilgan davlat xaridlari to‘g‘risida ma‘lumot<sup>19</sup> mln so‘mda

Nomlanishi	2023-yil			2022-yil		
	Shartno- ma soni	Shartno- ma summasi	Iqtisod bo‘lgan mablag‘	Shartno- ma soni	Shartno- ma summasi	Iqtisod bo‘lgan mablag‘
<b>Xammasi:</b>	<b>13 118</b>	<b>158 823</b>	<b>25 069</b>	<b>7 035</b>	<b>59 162</b>	<b>11 090</b>
Yangi shartnoma	47	424	15	34	92	6
To‘lov amalga oshirilgan	276	7 909	1 683	146	1 377	643
Yetkazib berilgan	12 276	140 874	20 168	6 558	53 845	9 042
Bekor qilingan shartnoma	519	9 616	3 203	297	3 848	1 398
<b>Ishlar</b>	<b>7 237</b>	<b>46 095</b>	<b>3 684</b>	<b>4 175</b>	<b>18 858</b>	<b>2 284</b>
Yangi shartnoma	29	199	5	29	74	3
To‘lov amalga oshirilgan	128	561	74	105	318	62
Yetkazib berilgan	6 831	43 124	3 446	3 855	17 600	2 099
Bekor qilingan shartnoma	249	2 211	159	186	866	119
<b>Tovarlar</b>	<b>5 702</b>	<b>110 437</b>	<b>21 317</b>	<b>2 832</b>	<b>40 082</b>	<b>8 785</b>
Yangi shartnoma	16	194	10	5	18	3
To‘lov amalga oshirilgan	147	7 334	1 606	41	1 060	581
Yetkazib berilgan	5 287	95 750	16 657	2 675	36 023	6 923
Bekor qilingan shartnoma	252	7 159	3 044	111	2 982	1 278
<b>Xizmatlar</b>	<b>179</b>	<b>2 292</b>	<b>68</b>	<b>28</b>	<b>222</b>	<b>21</b>
Yangi shartnoma	2	32				
To‘lov amalga oshirilgan	1	14	3			
Yetkazib berilgan	158	2 000	65	28	222	21
Bekor qilingan shartnoma	18	246				

Yuqorida keltirilgan tahlil ma‘lumotlaridan kelib chiqib, muallif fikricha, mamlakat va uning hududlarida kichik tadbirkorlik subyektlarning ulushini yanada qo‘llab-quvvatlash, ularga qo‘shimcha imtiyozlar berish asosida ularni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan, byudjet tizimi byudjetlaridan davlat xaridlarini amalga oshirishda milliy ishlab chiqaruvchilarga yanada ko‘proq imtiyoz berish, tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirish uchun xodimlarining umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslar, ayollar, yoshlarni tashkil qilgan hamda mazkur shaxslarga to‘langan ish haqi umumiy mehnatiga haq

<sup>18</sup> Andijon viloyat tovar xomashyo birjasining ma‘lumotlari asosida tuzildi.

<sup>19</sup> Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya hamda G‘aznachilik xizmati boshqarmalari ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil qilgan tadbirkorlik subyektlariga ustunlik berish maqsadga muvofiq.

## 5-jadval

### Davlat xaridlari hisobidan kelib tushgan tushumni 10% foizi soliqlardan chegirishili byudjet daromadlariga ta'sirining tahlili (Tanlanma korxona misolida (1 - 2 mlrd. so'mgacha shartnoma tuzgan))<sup>20</sup>, mln. so'mda

№	Korxona nomi	Davlat xaridi bo'yicha tushum va undiriladigan soliq tushumi (Soliq stavka: QQS 12%, FS 15%)dan taklif qilingan 10 foiz imtiyozni qo'lanilishi															Davlat xarid hisobiga soliq tushumini (+;-) (2023/2019, 2023/2021)		10% Imtiyozli summadan olinadigan soliq tushumini ulushi %da
		2019			2020			2021			2022			2023			Summa	Foizda	
		Tushum	10% imtiyoz summa-ni soliq summasi	Soliq tushum	Tushum	10% imtiyoz summa-ni soliq summasi	Soliq tushum	Tushum	10% imtiyoz summa-ni soliq summasi	Soliq tushum	Tushum	10% imtiyoz summa-ni soliq summasi	Soliq tushum	Tushum	10% imtiyoz summa-ni soliq summasi	Soliq tushum			
	Xammasi:	2 766	7	73	3 984	11		11 319	30		9 481	25		11 971	32	316	101	336%	10%
1	"GOOD HOPE GROPE" XK	1 687	4	45	2 037	5	54	4 083	11	108	3 904	10	103	6 863	18	181	137	307%	10%
2	OOO "BENET"	1 079	3	28	1 947	5	51	1 859	5	49	2 189	6	58	1 808	5	48	19	68%	10%
3	"AT-GOOD SERVIS" MCHJ							5 377	14	142	3 389	9	89	3 300	9	87	-55	-39%	10%

Keltirilgan 5-jadvalga ko'ra, tanlanma tartibda 3 ta QQS soliq to'lovchi korxonalarining 2019–2023-yillar davomida davlat xaridlari orqali tushgan tushumlaridan misol tariqasida 10 foiz chegirma berilishi byudjet daromadlariga qanday ta'sir etishi o'rganilgan. Ya'ni umumiy tushumdan 12 foiz qo'shilgan qiymat solig'i va qolgan summadan 20% korxona marjasi chegirib, shunga nisbatan 10% chegirma summani ayirib, keyin qolgan summadan 15 foiz foyda solig'ini hisoblab chiqilgan.

Tahlillarga ko'ra, "GOOD HOPE GROPE" XKga jami 5 yilda 18 mlrd. 573 mln. so'm tushgan, shundan 490 mln. so'm foyda solig'i ushlanishi kerak bo'lgan, agar foyda solig'iga tortiladigan summadan 10 foiz imtiyozli chegirma berilsa, bu summa 49 mln. so'mga yoki 10 foizga kamroq byudjet daromadlariga kelib tushadi. Biroq, 2023-yili 2019-yilga nisbatan solishtirganda byudjetga daromadlari summasi 137 mln. so'mga yoki 307 foizga ko'payganligini ko'rish mumkin. OOO "BENET" korxonasida 2023-yili 2019-yilga nisbatan solishtirganda byudjetga daromadlari summasi 19 mln. so'mga yoki 68 foizga ko'paygan. "AT-GOOD SERVIS" MCHJ 2023-yili 2019-yilga nisbatan solishtirganda byudjetga daromadlari summasi 55 mln. so'mga yoki 39 foizga kamaygan.

Mazkur tadqiqot ishida, tanlanma tartibda 3 ta aylanma (4%) soliq to'lovchi korxonalarining 2019–2023-yillar davomida davlat xaridlari orqali tushgan tushumlaridan misol tariqasida 10 foiz chegirma berilishi byudjet daromadlariga qanday ta'sir etishini o'rganib chiqildi. Ya'ni, umumiy tushumdan 10 foiz chegirma summani ayirib, qolgan summadan 4% foyda aylanma soliq hisoblab chiqildi (6-jadval).

<sup>20</sup> Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya hamda G'aznachilik xizmati boshqarmalari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

**Davlat xaridlari hisobidan kelib tushgan tushumni 10% foizi soliqlardan chegirishili byudjet daromadlariga ta'sirini tahlili (Tanlanma korxona misolida (100–499 mln. so'mgacha shartnoma tuzgan))<sup>21</sup>, mln. so'mda**

№	Korxona nomi	Davlat xaridi bo'yicha tushum va undiriladigan soliq tushumi (Soliq stavka: aylanmadan 4%)dan taklif qilingan 10 foiz imtiyozni qo'lanilishi															Davlat xarid hisobiga soliq tushumini (+;-) (2023/2019)		10% Imtiyozli summadan olinadigan solik tushumin ulushi %da
		2019			2020			2021			2022			2023			Summa	Foizda	
		Tushum	10% imtiyoz summa-ni soliq summasi	Soliq tushum	Tushum	10% imtiyoz summa-ni soliq summasi	Soliq tushum	Tushum	10% imtiyoz summa-ni soliq summasi	Soliq tushum	Tushum	10% imtiyoz summa-ni soliq summasi	Soliq tushum	Tushum	10% imtiyoz summa-ni soliq summasi	Soliq tushum			
	Xammasi:	195	1	8	654	2	21	672	2	15	1 190	4	38	1 199	4	38	19	371%	10%
1	TRADE NEW HOUSE XK	195	1	8	245	1	10	386	2	15	498	2	20	469	2	19	11	140%	10%
2	"SHAMS" XK	17	0,1	1	119	0,3	3	286	1	11	286	1	8	361	1	10	9	1302%	10%
3	"NUFUZLI DIYO" XK	71	0,3	3	290	1	8	316	1	13	406	1	11	369	1	10	7	243%	10%

Tahlillarga ko'ra, "TRADE NEW HOUSE" XKga jami 5 yilda 1 mlrd. 793 mln. so'm tushgan, shundan jami 72 mln. so'm aylanma 4% soliq ushlanishi kerak bo'lgan, agar aylanma soliqqa tortiladigan summadan 10 foiz imtiyozli chegirma berilsa, bu summa 7 mln. so'mga yoki 10 foizga kamroq byudjet daromadlariga kelib tushadi. Biroq, 2023-yili 2019-yilga nisbatan solishtirganda byudjetga daromadlari summasi 11 mln. so'mga yoki 140 foizga ko'payganligini ko'rish mumkin. "SHAMS" XK korxonasida 2023-yili 2019-yilga nisbatan solishtirganda byudjetga daromadlari summasi 9 mln. so'mga yoki 1302 foizga ko'paygan. "NUFUZLI DIYO" XK korxona sida 2023-yili 2019-yilga nisbatan solishtirganda byudjetga daromadlari summasi 7 mln. so'mga yoki 243 foizga ko'payganligi aniqlandi.


Muallif fikricha, mintaqalarda kichik biznes subyektlarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashda byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan davlat xaridlarini amalga oshirishda ular tomonidan ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni qo'llab quvvatlashda soliq tizimidan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun, kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar (ish, xizmat)larni davlat xaridlarining elektron savdo platformalari orqali sotilgan miqdorning 10 foizini soliqqa tortiladigan tushumdan chegirish tartibini joriy qilish orqali amalga oshirish zarur. Bu bevosita mintaqadagi tadbirkorlik subyektlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, o'z faoliyatlarini kengaytirish uchun qo'shimcha resurslar shakllantirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **"Davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari"** deb nomlangan uchinchi bobida davlat xaridlarini amalga oshirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish va xaridlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichini

<sup>21</sup> Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya hamda G'aznachilik xizmati boshqarmalari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

baholash asosida 2027-yilga qadar bo‘lgan muddatda davlat xaridini amalga oshirishning Andijon viloyati YaHM hajmiga ta’siri bo‘yicha prognoz ssenariyalari ishlab chiqilgan.

Respublikada davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotining shaffofligini ta’minlash maqsadida “Maxsus axborot portali” ishlab chiqilib, bunda E-GOV vazirlik va idoralarning axborot portali bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligining DMBAT hamda UzASBO tizimlari integratsiya qilinishi orqali “ochiq oyna”, “axborot-tahlil” va “shaxsiy kabinet” tizimlaridan tashkil topgan portalni shakllantirishga erishildi (5-rasm).




**5-rasm. Davlat xaridlari Maxsus axborot portalining tashkiliy tuzilishi<sup>22</sup>.**

Maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarini tashkil etilishida “xarid.uzex.uz”, “xt-xarid.uz”, “cooperation.uz” bilan “tender.mc.uz” elektron tizim operatorlari sifatida yetkazib beruvchilar va davlat buyurtmachilari o‘rtasidagi davlat xaridlari munosabatlarini tashkil etilishini ta’minlaydi. Shuningdek, elektron tizim operatorlari faoliyati ekspertiza markazi, Uzstandart, Davlat soliq qo‘mitasi va Markaziy banklar tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilinadi.

Ushbu model Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki talablari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning amaliyotga joriy etilishi yuqorida bildirib o‘tilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirib, davlat xaridlari sohasidagi mavjud muammolarni hal etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

<sup>22</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.





**6-rasm. Davlat xaridlarini Markaziy axborot portalida xavfni boshqarish (Risk management), turli mezonlar bo'yicha monitoringni amalga oshirish (Monitoring tools) hamda BI (Business intelligence) ma'lumotlar asosida tashkil etish modeli<sup>23</sup>.**

Muallif fikricha, keyingi yillarda respublikada davlat xaridlarini amalga oshirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirishda Markaziy axborot portalida xavfni boshqarish (Risk management), turli mezonlar bo'yicha monitoringni amalga oshirish (Monitoring tools) hamda BI (Business intelligence) ma'lumotlar asosida tashkil etish modeliga asoslanish talab etiladi (6-rasm).

Muallif fikricha, davlat xaridini amalga oshirish sohasida yuqorida keltirib o'tilgan muammoli vaziyatlarni inobatga olgan holda, keyingi yillarda ularni samarali hal etish, jumladan, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni davom ettirish hamda tizimni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda ishlarni amalga oshirish zarur:

- davlat xaridlarini amalga oshiruvchi vazirlik, idora va korxonalarda joriy etilgan "Komplaens nazorat" tizimini samaradorligini yanada oshirish;
- davlat xaridlarini amalga oshirishdan oldin davlat buyurtmachisi tomonidan xarid predmetining boshlang'ich narxini aniqlash imkonini beruvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish;
- davlat xaridlari jarayonida manfaatlar to'qnashuvi, xarid ishtirokchilarining asosiy benefitsiar mulkdori to'g'risidagi hamda affillangan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi "Elektron davlat xaridlari nazorati" elektron tizimini joriy etish;
- elektron savdolarida korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

<sup>23</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

-davlat xaridlari jarayonida sog'lom raqobat muhitini yaratishga taklif qilinayotgan tovar va xizmatlar narxlarini ularning turlari kesimida jamoatchilik nazorati tizimini shakllantirish va joriy etish;

- Markaziy axborot portalida xavfni boshqarish (Risk management), turli mezonlar bo'yicha monitoringni amalga oshirish (Monitoring tools) hamda BI (Business intelligence) ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini joriy qilish bo'yicha ishlarni yakuniga yetkazish;

- davlat xaridlarida faol tadbirkorlik subyektlari uchun reyting tizimi orqali kafolatlangan yoki halol tadbirkorlik subyektlari sinfini shakllantirish;

- tadbirkorlar uchun xorijiy davlatlarning tenderlarida qatnashish ko'nikmalarni oshirish markazini (experience center) tashkil etish va boshqalar.

Tadqiqotlar Andijon viloyatida qurilish sohasida tender savdolari amalga oshirilmay kelayotganligini, bunga tender savdolarining ishtirokchilari yetarli bo'lmayotganligi ko'rsatdi (7-jadval).

#### 7-jadval

#### Andijon viloyatida qurilish sohasida amalga oshirilmagan tender savdolari<sup>24</sup>

mln. so'm

Yillar	Amalga oshmagan tender soni	Tender summa	Tender ishtirokchilar soni			Tender ishtirokchilar soni FOIZDA(%)			Amalga oshirilmagan tenderlar summasi		
			0-(yo'q)	1	2-3	0-(yo'q)	1	2-3	0-(yo'q)	1	2-3
2022	207	240673	58	87	62	28	42	30	67389	101083	72202
2023	512	85480	300	184	28	59	36	5	50433	30773	4274
2024	313	106651	170	113	30	54	36	10	57592	38394	10665
<b>O'rtacha jami:</b>	<b>1032</b>	<b>432805</b>	<b>528</b>	<b>384</b>	<b>120</b>	<b>51</b>	<b>37</b>	<b>12</b>	<b>175414</b>	<b>170250</b>	<b>87141</b>

7-jadval ma'lumotlari 2022-yildan 2024-yil davomida Andijon viloyatida qurilish sohasida 432805 mln. so'mlik 1032 ta tender savdolari amalga oshirilmaganligini ko'rsatadi. Shundan ishtirokchilar soni bo'yicha ko'rib chiqilganda, umuman ishtirok etmaganlar 175414 mln. so'mlik 528 ta (51 foiz), 1 dona ishtirokchi ishtirok etganlar 170250 mln. so'mlik 384 ta (37 foiz), 2 dan 3 tagacha ishtirokchi ishtirok etganlar 87141 mln. so'mlik 120 ta (12 foiz)ni tashkil etgan. 2022-yilda umuman ishtirok etmaganlar 67389 mln. so'mlik 58 ta (28 foiz), 1 dona ishtirokchi ishtirok etganlar 101083 mln. so'mlik 87 ta (42 foiz), 2 dan 3 tagacha ishtirokchi ishtirok etganlar 72202 mln. so'mlik 62 ta (30 foiz)ni tashkil etgan. 2023-yilda umuman ishtirok etmaganlar 50473 mln. so'mlik 300 ta (59 foiz), 1 dona ishtirokchi ishtirok etganlar 30773 mln. so'mlik 184 ta (36 foiz), 2 dan 3 tagacha ishtirokchi ishtirok etganlar 4274 mln. so'mlik 28 ta (5 foiz)ni tashkil etgan. 2024-yilda umuman ishtirok etmaganlar 57592 mln. so'mlik 170 ta (54 foiz), 1 dona ishtirokchi ishtirok etganlar 38394 mln. so'mlik 113 ta (36 foiz), 2 dan 3 tagacha ishtirokchi ishtirok etganlar 10665 mln. so'mlik 30 ta (9 foiz)ni tashkil etgan.

<sup>24</sup> <https://tender.mc.uz/tender-list> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-sonli “Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq sohaviy qurilish-pudrat tashkilotlari elektron reytingi o‘lchovlari quyidagicha belgilangan. Tender predmetining qiymati va xavf-xatar toifasiga qarab, talabgorlarga qo‘yilgan minimal talab keltirilgan bo‘lib, ular 4 ta toifaga ajratilgan. Xavf-xatar toifasidagi ob‘ektlar bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining 20 ming barobaridan 400 ming barobari oralig‘ida baholanadi. Ushbu talabalarga muvofiq, Andijon viloyatida xavf-xatar toifasidagi ob‘ektlariga qarab qurilish sohasida bekor bo‘lgan tender savdolari o‘zgarish tendensiyalari so‘ngi yillardagi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan(8-jadval).

## 8-jadval

### Andijon viloyatida qurilish sohasida bekor bo‘lgan tender savdolari<sup>25</sup>

mln. so‘m

Yillar	Bekor bo‘lgan tender soni	Tender summa	Reyting					Reyting FOIZDA(%)					Reyting summasi				
			S	SS	D	DD	DDD	S	SS	D	DD	DDD	S	SS	D	DD	DDD
2022	24	92184	9	1	14			38	4	58			35030	3687	53467		
2023	12	19969	4		6	1	1	33		50	8	8	6590		9985	1598	1796
2024	30	197777	9	2	18		1	30	7	62		3	62468	13525	119790		1994
<b>O‘rtacha jami:</b>	<b>66</b>	<b>309929</b>	<b>22</b>	<b>3</b>	<b>38</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>33</b>	<b>5</b>	<b>58</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>104088</b>	<b>17212</b>	<b>183242</b>	<b>1598</b>	<b>3789</b>

8-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki 2022-yildan 2024-yil davomida Andijon viloyatida qurilish sohasida 309929 mln. so‘mlik 66 ta tender savdolari bekor bo‘lgan. Shundan sohaviy qurilish-pudrat tashkilotlari elektron reytingi o‘lchovlari bo‘yicha ishtirokchilar sonini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 22 ta (33 foiz) S-reyting bahosidagi (3-qoniyarli daraja), 3 ta (5 foiz) SS-reyting bahosidagi (2-qoniyarli daraja), 38 ta (58 foiz) D-reyting bahosidagi (3-quyi daraja), 1 ta (2 foiz) DD-reyting bahosidagi (2-quyi daraja), 2 ta (3 foiz) DDD-reyting bahosidagi (1-quyi daraja) pudrat tashkilotlarni tashkil etgan. 2022-yilda 92184 mln. so‘mlik 24 ta, shundan 35030 mln. so‘mlik 9 ta (38 foiz) S-reyting bahosidagi (3-qoniyarli daraja), 3687 mln. so‘mlik 1 ta (4 foiz) SS-reyting bahosidagi (2-qoniyarli daraja) va 53467 mln. so‘mlik 14 ta (58 foiz) D-reyting bahosidagi (3-quyi daraja) pudrat tashkilotlarni tashkil etgan. 2023-yilda 19969 mln. so‘mlik 12 ta, shundan 6590 mln. so‘mlik 4 ta (33 foiz) S-reyting bahosidagi (3-qoniyarli daraja), 9985 mln. so‘mlik 6 ta (50 foiz) D-reyting bahosidagi (3-quyi daraja), 1598 mln. so‘mlik 1 ta (8 foiz) DD-reyting bahosidagi (2-quyi daraja) va 1796 mln. so‘mlik 1 ta (8 foiz) DDD-reyting bahosidagi (1-quyi daraja) pudrat tashkilotlarni tashkil etgan. 2024-yilda 197777 mln. so‘mlik 30 ta, shundan 62468 mln. so‘mlik 9 ta (30 foiz) S-reyting bahosidagi (3-qoniyarli daraja), 13525 mln. so‘mlik 2 ta (7 foiz) SS-reyting bahosidagi (2-qoniyarli daraja), 119790 mln. so‘mlik 18 ta (63 foiz) D-reyting

<sup>25</sup> <https://tender.mc.uz/tender-list> ; <https://reyting.mc.uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



bahosidagi (3-quyi daraja) va 1994 mln. soʻmlik 1 ta (3 foiz) DDD-reyting bahosidagi (1-quyi daraja) pudrat tashkilotlarni tashkil etgan.

Muallif fikricha, qurilish sohasida tender savdolarida 1 dona ishtirokchi ishtirok etgan savdolar ulushi yuqori boʻlishi byudjet tashkilotlarining qurilishlarini oʻz vaqtida yakunlash va sifatli amalga oshirishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shunga koʻra, mintaqalarda davlat xaridlarini amalga oshirish usulini byudjet buyurtmachilari tomonidan tovar va xizmatlarni xarid qilishda tender savdolarida faqat bitta tadbirkorlik subyekti ishtirok etib, keyinchalik qoʻshimcha talablar qoʻyilmagan holda takroriy tender savdolari tashkil etilib, unda ilgari qatnashgan tadbirkorlik subyekti qayta ishtirok etsa, tender savdolarini yakunlangan deb hisoblash maqsadga muvofiq.

Tahlillar soʻnggi yillarda mamlakatda davlat xaridlari tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarga ustuvorlik qaratilib kelinayotganligiga qaramay, bugungi kunda ushbu sohada oʻz yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini koʻrsatdi. Jumladan:

a) davlat xaridlarini amalga oshirishning normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtirish zaruriyatining mavjudligi:

- ayrim davlat buyurtmachilarga individual tarzda toʻgʻridan-toʻgʻri shartnomalar tuzish huquqini berilishi;

b) tadbirkorlik subʼektlarining davlat xaridlari jarayonidagi ishtirokining pastligi:

- oʻtgan va ushbu davrda faol boʻlgan tadbirkorlik subʼektlarining soni 509 mingtani tashkil etgan boʻlsa, shundan, 214 mingdan ortigʻi (faol tadbirkorlik subʼektlar soniga nisbatan 42,2 %) davlat xaridlari boʻyicha elektron tizimlaridan roʻyxatdan oʻtgan;

d) davlat xaridlarida byudjet buyurtmachilarning masʼuliyatini oshirish:

- insofsiz ijrochilar toʻgʻrisidagi nizomni takomillashtirish;
- ishtirokchilarning samaradorlik reytingini baholash tizimini joriy etish;
- insofsiz ijrochilar roʻyxatiga shartnomaviy majburiyatlarni bajarmagan gʻoliblarni kiritish. Bugungi kunda ushbu roʻyxatga 60 ta tadbirkorlik subʼektlari kiritilib, shubhali yetkazib beruvchilar reyestrda mavjud boʻlgan tadbirkorlik subʼektlarning ishtiroki cheklandi;

e) davlat xaridlari boʻyicha shartnomalarni roʻyxatga olishda inson omili ishtirokini qisqartirish:


- davlat xaridlari orqali tuzilgan shartnomalarning davlat buyurtmachilar va ishtirokchilar oʻrtasida kelishmovchiliklar natijasida ijrosi toʻliq bajarilmaslik holatlari (bekor qilish holatlari jami xaridlarga nisbatan 10%);

f) davlat xaridi jarayonlari bilan bogʻliq boʻlgan boshqa holatlar:

- shikoyatlarni koʻrib chiqish komissiyaning faoliyatini takomillashtirish;
- davlat buyurtmachilari va ishtirokchilar oʻrtasidagi nizolarning soni ortib bormoqda, bu esa byudjetdan ajratilgan mablagʻlarni maqsadli ishlatilishiga taʼsir koʻrsatmoqda.

Davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini baholash maqsadida ishlab chiqilgan koʻp omilli regression-korrelyatsion tahlil natijalariga asoslangan holda, Andijon viloyatida amalga oshirilgan jami davlat xaridlarining viloyat YaHM hajmi

o'sishiga bo'lgan ijobiy ta'siri va ular o'rtasidagi sezilarli darajadagi kuchli ichki bog'liqlikning mavjudligi asosida o'rta muddatli istiqbolda davlat xaridlari hajmining o'zgarishi hisobiga viloyat YaHMning rivojlanishi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarni ishlab chiqish lozim, ya'ni, bunda davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlarini isloh etish va rivojlanish tendensiyalaridagi o'zgarishlarning viloyat YaHM hajmiga ta'sirini baholashga asoslanildi (7-rasm).



**7-rasm. Andijon viloyatida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish hisobiga viloyat YaHM hajmining rivojlanishi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlar, mlrd. so'mda<sup>26</sup>.**

Bazaviy prognoz bo'yicha amalga oshirilgan hisob kitoblarga ko'ra, viloyat YaHM hajmi 2028-yilga qadar bo'lgan o'rta muddatli istiqbolda 2024-yilga nisbatan 32,2 foizga ortishi mumkinligi aniqlandi.

Ikkinchi prognoz ko'rsatkichlari pessimistik ssenariylar bo'yicha YaHM hajmi 1,3 foizga ortishi mumkinligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkich bazaviy prognoz bo'yicha olingan natijalarga nisbatan qariyb 23,4 foizga kamligi bilan xarakterlanadi.

Hisob kitoblarga ko'ra, bildirilgan takliflarga asoslangan holda davlat xaridlari tizimini takomillashtirilishi hisobiga davlat xaridini amalga oshirish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligining keskin ortishi natijasida prognoz qilinayotgan davrda viloyat YaHM hajmini 68,8 foizga oshirish mumkin bo'ladi. Bu esa "O'zbekiston – 2030"<sup>27</sup> dasturida belgilangan strategik maqsadlarga muddatdan ilgari erishish imkoniyati mavjud ekanligidan dalolat beradi.

<sup>26</sup> Andijon viloyati Statistika agentligi Iqtisodiyot va Moliya boshqarmalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "«O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

## XULOSA

Davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishning mintaqaviy xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqot ishini amalga oshirish asosida quyidagi ilmiy xulosalar olinib, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishiga erishildi:

1. Davlat xaridi – bu davlatning mahalliy, iqtisodiy, ijtimoiy va yashil barqarorlik maqsadlari bo'yicha mavjud ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan davlat byudjeti yoki nobyudjet mablag'lari hisobidan to'liq yoki qisman sotib olish jarayonida vujudga keladigan byudjet xarajatlarining maqsadlilikini ta'minlash imkonini beruvchi moliyaviy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

2. Andijon viloyatida davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha elektron do'kon orqali tuzilayotgan shartnomalar soni so'nggi yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lishiga qaramay, ushbu shartnomalar qiymati va ular asosida amalga oshirilgan to'lovlarning umumiy davlat xaridi tarkibidagi ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ushbu holat bir tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirilishida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonlarining faollashganidan dalolat bersa, boshqa tomonidan, bu turdagi shartnomalar kichik summalarga tuzilganligi bilan xarakterlanadi;

3. Andijon viloyatida davlat xaridlari shartnomalari tuzish bo'yicha reyting baholash natijalariga ko'ra, Asaka, Baliqchi tumanlari va Andijon shahri boshqa tumanlarga nisbatan yetakchilik qilsa, Bo'ston, Ulug'nor tumanlari va Xonobod shahri bu borada viloyatda past natijaga erishgan tumanlar qatoridan o'rin egallaydi. Shu o'rinda, reyting baholashning umumiy natijalarida ham markazlashgan xarakterdagi davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha viloyat markaziy boshqarmasi eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan;

4. Xodimlari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo'lgan shaxslar, ayollar, yoshlarni tashkil qilgan hamda mazkur shaxslarga to'langan ish haqi umumiy mehnatiga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil qilgan tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridi jarayonlaridagi ishtirokini ta'minlash bo'yicha imtiyozlarni joriy etish maqsadga muvofiq;

5. Mintaqalarda davlat xaridlari usulini byudjet buyurtmachilari tomonidan tovar va xizmatlarini xarid qilishni tender savdolarida bitta tadbirkorlik subyekti ishtirok etgan taqdirda, davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilini hamda tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) oid mezonlarni o'zgartirmagan holda takroran savdoga joylashtirganda hamda takroriy tender savdolarining yagona ishtirokchisi ilgari ishtirok etgan tadbirkorlik subyekti bo'lganda, tender savdolari o'tkazilgan deb hisoblash maqsadga muvofiq;

6. Mintaqalardagi tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirishni ular tomonidan o'zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni davlat xaridlarining elektron savdo platformalari orqali sotilgan miqdorning 10 foizini soliqqa tortiladigan tushumdan chegirish tartibini joriy qilish maqsadga muvofiq;

7. Respublikada davlat xaridlarini amalga oshirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirishda Markaziy axborot portalida xavfni boshqarish (Risk management), turli mezonlar bo'yicha monitoringni amalga oshirish (Monitoring

tools) hamda BI (Business intelligence) ma'lumotlar asosida tashkil etish modeliga asoslanishi maqsadga muvofiq;

8. Davlat xaridlari jarayonida sog'lom raqobat muhitini yaratishga taklif qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarini, ularning turlari kesimida jamoatchilik nazorati ostida shakllantirish tizimini joriy etish zarur;

9. Davlat xaridlari jarayonida ishtirok etuvchi ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, jumladan ular uchun keng imkoniyatlar yaratish, shu bilan birgalikda, offteyk-shartnomalarga asoslangan davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan uzoq muddatli shartnomalar tuzishni rag'batlantirish talab etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/30.12.2019.I.01.11 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
УЗБЕКИСТАНА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ  
МИРЗО УЛУГБЕКА**

**РЕЖАПОВ САЙДУЛЛА ХИКМАТУЛЛАЕВИЧ**

**РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ  
МЕХАНИЗМА ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит  
08.00.12 – Региональная экономика

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2024.4.PhD/igt4162 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации опубликован на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме) на веб-сайте Научного совета ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Азимов Рустам Содикович**  
доктор экономических наук, профессор  
**Умаров Абдувахоб Турсунович**  
кандидат экономических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Рузметов Бахтияр**  
доктор экономических наук, профессор  
**Акрамов Азамат Рамзидинович**  
доктор философии по экономическим наукам

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный  
экономический университет**

Защита диссертации состоится в 14:00 часов 14 февраля 2025 года на заседании Научного совета № DSc.03/30.12.2019.I.01.11 при Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Университетская, д. 4. Тел.: (99871) 227-12-24, (71) 246-02-24, факс: (71) 246-90-80, e-mail: [rektor@nuu.uz](mailto:rektor@nuu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (регистрационный номер №12). (Адрес: 100174, город Ташкент, улица Университетская, д. 4. Тел.: (99871) 227-12-24, (71) 246-02-24, факс (71) 246-90-80, e-mail: [rektor@nuu.uz](mailto:rektor@nuu.uz)).

Автореферат диссертации разослан 30 января 2025 года.

(протокол реестра № 44 от 30 января 2025 года).



**Х.П. Абулкосимов**  
Председатель (научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
экономических наук, профессор

**К.К. Мамбетжанов**  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
экономических наук, профессор

**А.В. Вахабов**  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор экономических наук,  
профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Развитие рыночных экономических отношений в мире быстрыми темпами привело к существенному повышению роли процессов государственных закупок в странах. В частности, объем государственных закупок по отношению к валовому внутреннему продукту (ВВП) в странах-членах Организации экономического сотрудничества и развития составляет: “в Нидерландах – 20,9%, в Финляндии – 18,9%, в Японии и Германии – 18,1%, в то время как в Казахстане этот показатель составляет 10,1%, в Российской Федерации – 6,7%, а Кыргызстане – 6,2%”<sup>28</sup>. Данная ситуация подчеркивает необходимость приоритетного внимания к реформам, направленным на совершенствование организационно-экономического механизма государственных закупок в целях обеспечения устойчивого развития экономики страны.

В проводимых научных исследованиях по всему миру вопросы цифровизации процессов государственных закупок, совершенствования принципов их организации, оценки экономической эффективности закупок, разработки эффективных форм их проведения, а также расширения участия субъектов предпринимательства в процессе государственных закупок изучаются как глобальные проблемы. В частности, приоритетными направлениями научных исследований являются совершенствование организационно-экономического механизма закупок, упрощение процедур заключения контрактов, развитие процессов поставки товаров и осуществления платежей между государственными заказчиками и поставщиками, а также расширение практики использования инноваций в системе государственных закупок.

В условиях “Нового Узбекистана” приоритет отдается реформам, направленным на расширение сферы государственных закупок, формирование здоровой конкурентной среды в отрасли, вовлечение субъектов предпринимательства в процесс государственных закупок, цифровизацию системы государственных закупок, предотвращение коррупции и различных нарушений в отрасли и обеспечения прозрачности процессов государственных закупок. В Республике для расширения участия субъектов предпринимательства в процессе государственных закупок “...необходимо внедрение требований к «местному контенту» в государственных закупках. На сегодняшний день из 70 тысяч местных производителей только 4 тысячи (6 процентов) зарегистрированы на портале кооперации... стимулирование увеличения доли местной продукции в государственных закупках”<sup>29</sup> свидетельствуют о приоритетности реформ, направленных на совершенствование механизма реализации государственных закупок в стране.

---

<sup>28</sup> [www.oecd.org/en/topics/public-procurement.html](http://www.oecd.org/en/topics/public-procurement.html); «Государственные (муниципальные) закупки государств - членов Евразийского экономического союза» (анализ показателей отчетности) обзор 2023. – Москва, – 2024. – 12 с. // <https://www.bing.com/ck/a?!&&p>.

<sup>29</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/7481> // Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на встрече с предпринимателями страны в формате открытого диалога 20 августа 2024 года.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, установленных в Законе Республики Узбекистан ЗРУ-684 от 22 апреля 2021 года “О государственных закупках”, указах Президента Республики Узбекистан № УП-5780 от 13 августа 2019 года “О дополнительных мерах по усилению защиты частной собственности и гарантий прав собственников, коренному совершенствованию системы организации работ по поддержке предпринимательских инициатив, а также расширению доступа субъектов предпринимательства к финансовым ресурсам и производственной инфраструктуре”, № УП-158 от 11 сентября 2023 года “О Стратегии «Узбекистан – 2030»”, постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4544 от 5 декабря 2019 года “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы государственных закупок и широкому привлечению субъектов предпринимательства к процессу государственных закупок”, № ПП-5171 от 2 июля 2021 года “О дополнительных мерах по обеспечению прозрачности и повышению эффективности государственных закупок”, № ПП-417 от 3 декабря 2024 года “О дополнительных мерах по поддержке производителей и созданию для них широких возможностей в государственных закупках”, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №276 от 20 мая 2022 года “Об утверждении Положения о порядке организации и проведения процедур, связанных с осуществлением государственных закупок”, а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики **І. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».**

**Степень изученности проблемы.** В экономической литературе теоретические основы государственных закупок исследованы в научных работах зарубежных экономистов-ученых, таких как V. Samuelson, F. Skott, D. Levin, J. Smit, Ye. Krasnokutskaya, K. Seym, Ye. K’erstad, S. Vagstad, T. Li, X. Chjeng, J. Roberts, A. Sveting, P. Bajari, R. Millan, S. Tadelis, D. Porta, A.Vannukki, D. Soreide<sup>30</sup>.

---

